

“Akademik Qori Niyoziy me’rosi” Ilmiy-metodik markazi Kengashining navbatdagi yig’ilishi

2021 yil 3 aprelda “Akademik Qori-Niyoziy me’rosi” Ilmiy-metodik markazi Kengashining navbatdagi yig’ilishi bo’lib o’tdi. Kengash yig’ilishida O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori, akademik, Kengash raisi Sh.A. Ayupov, kengash a’zolari O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti S.Z.Mirzaev, TIQHMMI o’quv ishlari bo’yicha prorektori B.A.Xudayarov va boshqa kengash a’zolari hamda Moskva shahridan tashrif buyurgan akademik Qori-Niyoziy nevarasi Shavkat Shavkatovich Qori-Niyoziy qatnashdi. Yig’ilishda iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni qo’llab-quvvatlash masalalari ko’rib chiqildi.



Germaniyaning Frankfurt Universitetida har yili o’tkaziladigan Halqaro Forumda Respublikamiz o’quvchi yoshlarining qatnashishi bo’yicha tayyorgarlik masalalari ko’rib chiqildi. Halqaro forumda har yili S.H.Sirojiddinov nomli akademik litsey o’quvchilari innovatsion g’oyalari qatnashadi va g’oliblikni qo’lga kiritadi. O’quvchilarning Frankfurt shahriga safar xarajatlari Qori-Niyoziy Ilmiy-metodik markazi tomonidan amalga oshiriladi. Bu yilgi Halqaro Forumda qatnashish uchun birinchi marta “INTERNATIONAL HOUSE TASHKENT” akademik litseyining iqtidorli o’quvchilari ham jalb qilindi va TJAB kafedrasida asisistenti E.Ozodov kuratorligida 4 ta innovatsion g’oyalar bilan ro’yxatdan o’tdi. Yig’ilishda o’quvchilarning Forumga tayyorgarlik ko’rishini nazoratga olish vazifasi mas’ullarga yuklatildi. Shuningdek, may oyida OTM talabalari o’rtasida matematika fanidan tanlov o’tkazish hamda 2021 yil kuz oylarida akademik litseylar o’quvchilari o’rtasida fan olimpiadasini o’tkazishga kelishildi.



TIQHMMI matbuot xizmati